
NAVBATDAGI SESSIYA BO'LIB O'TDI

Bugun Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining navbatdagi 45-sessiyasi bo'lib o'tdi. Bugungi sessiyada tuman Kengashi deputatlari, tumandagi sektor rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

KUN TARTIBIDA

Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari tomonidan 2022 yilni oktyabr oyida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman Xalq qabulxonasi mudiri S.Dodoboevning Axboroti

2022 yilning 9 oyi davomida tumanda odil sudlovni amalga oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Rishton tumanlararo iqtisodiy sudining raisi U.Ergashevning Axboroti 2022 yilning 9 oyi davomida tumanda odil sudlovni amalga oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudining raisi Sh.Axunbaevning Axboroti

2022 yilning 9 oyi davomida tumanda odil sudlovni amalga oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Jinoyat ishlari bo'yicha Rishton tuman sudining raisi U. Mehmonalievning Axboroti

2022 yil III chorak mahalliy byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar xarajatlar smetasiga kiritilgan o'zgarishlar; -Rishton tuman mahalliy byudjetining 2022 yil III-choragi ijrosi hisoboti va daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismini foydalanish yo'nalishlarini belgilangan tartibi;

-Tashabbusli byudjet jarayonini 3-choragi bo'yicha hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining 03.10.22 yil kungi VI-43-92-11-158-K/22 sonli qarori bilan ma'qullangan 1-ilovadagi "Manzilli ro'yxat" bo'yicha belgilangan buyurtmachilariga kiritilgan o'zgarish to'g'risida Axborotlar;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-409-sonli qarorini tumandagi ijrosi to'g'risida Moliya bo'limi mudiri I.Djo'raev Axboroti (xisoboti).

Kam ta'minlangan, ijtimoiy kumakka muhtoj bulgan fuqarolarni (oilalarni) "Temir daftar" ro'yxatiga kiritish va muammolari hal bo'lgan fuqarolar (oilalar)ni ro'yxatdan chiqarish hamda "Mahalla" xayriya jamoat fondini tumandagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga tushgan mablag'larni tasarruf etish to'g'risida tuman hokimining 1-o'rinbosari A.Mustafaqulovning Axboroti

Tuman XTB tasarrufidagi 41 sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining bush turgan direktorlik lavozimiga nomzodni tavsiya etish

Sessiya yakunida ko'rilgan masalalar yuzasidan deputatlar munosabat bildirishib tegishli qarorlar qabul qilindi.

2022-11-01 14:59:10